

## OILA – BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MASKANI

**Lapasov Muxammadsodiq Akramjon o‘g‘li**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: **X.Xolmatov**

### **ANNOTATSIYA**

*Oila barkamol avlod tarbiyasida muhim maskan ekanligi yoritib berilgan.*

*Kalit so‘zlar: ota-ona, Vatan, oila, ayolmand, niyozmand, urug‘, milliy qadriyatlar, Konstitutsiya, oila yili, oila kodeksi, mustahkam oila yili, BMT Bosh Assambleyasi,*

Har qaysi mamlakatning o‘ziga xos ma‘naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta‘siri beqiyosdir. Chunki har bir oilaning va hatto jamiyatning muqaddas vazifasi qobiliyatli farzandlarni o‘stirish, ularni ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan yetuk, ota-onasiga, Vataniga sodiq insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Ma‘lumki, har qanday davlat, har qanday jamiyat ham o‘z boyliklari bilan qudratli hisoblansada, mana shu jamiyatda, shu davlatda qaror topgan oila ham uning buyuk bo‘lishiga xizmat qiladi. Oila asli arabcha ayolmand, niyozmand ma‘nolarini anglatuvchi so‘zdan kelib chiqqan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham bu so‘zning arabcha ekanligi ta‘kidlanib, bola-chaqa hamda urug‘ oilani anglatgan va yana ko‘plab ma‘nolari mavjud. Dastlabki va bosh ma‘nosi “Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuasi, xonadon” ma‘nosida ishlatilgan. Ikkinchisi ko‘chma ma‘noda: “Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko‘p kishilar, xalqlar, mamlakatlar” va o‘simlik, hayvonot olamida hamda tilda ham “oila”

atamasi qo'llaniladi. So'zlashuv tilida ham bu atama keng ishlatiladi (rafiqam, oilam va hakazo). Va tilimizda oilali, oilaparvar, oilasiz, oilalik atamalari ham mavjud. Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Sharqda bir necha asrlar oldin oila va uni tashkil etish, oilaviy munosabatlari, uning farzand kamolotidagi o'rni va roli xususida Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz ham o'z qarashlarini bayon etib kelganlar.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ijod qilgan o'zbek ma'rifatparvarlari Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniylarning asarlarida xalqimizning milliy qadriyatlari, turmush tarzi, oilada ota-ona va farzand munosabatlari milliy ruhda ifodalangan. Mustaqil O'zbekistonda oilani mustahkamlash, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilish, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash uchun samarali ishlar amalga oshirilmogda. Bu fikrlarning yorqin davomi va hayotdagi tasdig'i 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida oilaning ijtimoiy maqomi belgilab qo'yilgani va 1998 yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi, 1998-yil 30-aprelda Oila Kodeksining qabul qilinishi va 2012-yilni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinishida o'z aksini topgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mustaqil O'zbekistonda oilani mustahkamlash va uning manfaatlarini himoya qilish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosat darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida "Oila kodeksi" ning qabul qilinishi mamlakatimizdagi ma'naviy muhitni barqarorlashga, onalik va bolalik huquqlarini himoya qilishga, yoshlar tarbiyasini yaxshilash uchun sharoit va imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. Unda oilaviy munosabatlarning huquqiy, axloqiy asoslari ota-onalarning jamiyat va farzandlari oldidagi burchi masalasiga katta o'rin berilgan. Oila institutiga e'tibor butun dunyoda katta ekanini sir emas. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentabrdagi yalpi yig'ilishida 1994-yildan boshlab 15-may "Xalqaro oila kuni" deb e'lon qilinib, uning keng nishonlanishiga kelishilgani ham

fikrimizning isbotidir. Bundan ko‘zlangan maqsad bashariyatning diqqat e‘tiborini, inson o‘z orzu-umidlari, baxti saodati hamda tinchlikni bog‘laydigan maskan oilaning mustahkam bo‘lishiga qaratishdir. Milliy o‘zlikni anglash oiladan boshlanadi. Oila milliy dunyoqarash manbai sifatida bolalarga milliy mafkurani, oilaning nasldan-naslga o‘tib kelayotgan an‘analarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Chunki ma‘naviy - milliy ruh kezgan oilagina jamiyatga haqqoniy tayanchlarni yetkazib berishga qodir. Oila- bolaning xulqi va dunyoqarashi shakllanishida hal qiluvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Har bir oilada kamol topayotgan o‘g‘il-qizlar o‘z ota-onalaridan o‘zlashtirgan dunyoqarashlarini, turmush tajribalarini, oilaviy an‘analarini, qadriyatlarini o‘z oilaviy qoidalariga aylantiradilar. Kengroq ma‘noda aytadigan bo‘lsak, oila tabiati, iqlimi ota-ona tarbiyasining mahsuli bo‘lib maydonga keladi. Bu esa farzandlarning dunyoqarashiga shakl, mazmun berib meros tarzida avloddan-avlodga o‘tib boradi. Ota-onalar va oiladagi kattalar o‘zlarining oilaga, ro‘zg‘orga, farzandlarga, atrofdagi insonlarga qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, mehnatga bo‘lgan munosabatlarida bolalarga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatib boradilar. Oilada ota-onaning mehri, bobo-buvilarning o‘gitlari, mehr-muruvvat va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishlari voyaga yetayotgan o‘g‘il-qizlar tarbiyasida, ruhiyatida o‘z aksini topadi. Oilada farzandlarning ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lib o‘sishiga oila muhitining ta‘siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo‘lsa, bolalar ham xuddi shu muhit ta‘sirida ulg‘ayadilar. Oila muhiti bolalarga ta‘sir ko‘rsatish bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog‘lom qilib voyaga yetkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki, ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan har bir ota-onaning burch va vazifasiga ma‘suliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bilan bir qatorda, bilimli, aql-zakovotli, uddaburon, zukko, ruhan va ma‘naviy barkamol insonni voyaga yetkazish, shuningdek, oila an‘analari, kasb-kori, shajarasining davomiyligini ta‘minlash, farzandni bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishga erishish, giyohvandlik, axloqsizlik, aqidaparastlik kabi ba‘zi bir illatlarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va boshqalar kiradi. Oila turmush va vijdon qonunlari

asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. Shu ma'noda oilani uning boqiy qadriyatlarini ulug'lab, respublikamizda, El-yurt tayanchi degan muazzam yodgorlikning barpo etilishi ko'pchilikning ko'nglidagi ish bo'lganini ta'kidlash joiz. Qadimiy va navqiron Qarshi shahrining 2700 yillik to'yi arafasida ushbu shaharda qad rostlagan bu muhtasham obida ming yillar davomida qancha-qancha sinov va mashaqqatlarni boshidan kechirib, o'z ona yurtini har qanday balo-qazolardan asrab-avaylab kelgan, o'g'il-qizlarini aql-zakovat, mardlik va matonat sohibi etib tarbiyalagan bunyodkor xalqimizga, uning tom ma'noda tayanchi bo'lgan oilaga cheksiz hurmat-ehtirom tuyg'usini mujassam etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Lapasov, M. (2023). ABU HOMID AL-G 'AZZOLIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTINING TEOLOGIK, IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI. PEDAGOG, 6(2), 364-366.*
2. *Lapasov, M. (2023). THE EDUCATIONAL VALUE OF IMAM MOTURIDI'S TEACHINGS FOR THE YOUNG GENERATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(1), 148-152.*
3. *Akramjon o'g'li, L. M. (2023). MAHMUDXO 'JA BEHBUDIYNING IJTIMOIIY SIYOSIY QARASHLARI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(14), 1-6.*
4. *Akromjon o'g'li, L. M. (2023). MUSTAQLLIK-ENG BUYUK NE 'MAT. Journal of Universal Science Research, 1(2), 180-183.*
5. *Akramjom o'g'li, L. M. (2023, February). O 'QUVCHI YOSHLARNING MAFKURAVIY XURUJLARGA QARSHI KURASHISHDA MILLIY GO 'YA VA MAFKURALARNING O 'RNI. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 6, pp. 13-15).*

6. Akramjon o'g'li, L. M. (2023). *MARKAZIY OSIYODA TAFSIR ILMI O'ZIGA XOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 1(12), 1-5.

7. Xusniddin Xolmatov (2022). *BUXORO AMIRLIGINING TA'LIM TIZIMI. Academic research in educational sciences, Religion Conference* , 252-253.